

**YANGI O'ZBEKISTON ISLOHOTLARI SHAROITIDA ALOHIDA  
EHTIYOJLI O'QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA MUSIQA  
TERAPIYASINING PEDAGOGIK ASOSLARI**

*Nazarova Dilnoza Eraliyevna*

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti  
Tarix kafedrasi dotsenti, tarix fanlari falsafa doktori (PhD)*

*Qoraboyeva Shoxista Shavkatullo qizi*

*Musiqqa ta'limi va san'at mutaxassisligi  
1-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Yangi O'zbekiston islohotlari sharoitida alohida ehtiyojli, imkoniyati ma'lum darajada cheklangan o'quvchilar bilan ishlashda musiqa terapiyasining pedagogik jihatlari tahlil qilinadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqilgan Harakatlar strategiyasi, Taraqqiyot strategiyasi hamda "O'zbekiston-2030" dasturida belgilangan ta'lim islohotlari doirasida inklyuziv ta'limni rivojlantirish masalalari yoritiladi. Musiqa terapiyasining o'quvchilarning psixo-emotsional holatiga ta'siri, ularning ijtimoiy moslashuvi va kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati ochib beriladi. Maqolada musiqa terapiyasini ta'lim jarayoniga joriy etishning samarali metodlari va amaliy tavsiyalar keltiriladi.

**Kalit so'zlar:** inklyuziv ta'lim, musiqa terapiyasi, alohida ehtiyojli o'quvchilar, psixo-emotsional holat, pedagogik yondashuv, ta'lim islohotlari.

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МУЗЫКАЛЬНОЙ ТЕРАПИИ ПРИ  
РАБОТЕ С УЧАЩИМИСЯ С ОСОБЫМИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМИ  
ПОТРЕБНОСТЯМИ В УСЛОВИЯХ РЕФОРМ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА**

**Аннотация:** В данной статье анализируются педагогические аспекты музыкальной терапии при работе с учащимися с особыми образовательными потребностями и ограниченными возможностями в условиях реформ Нового Узбекистана. Освещаются вопросы развития инклюзивного образования в рамках образовательных реформ, определённых Стратегией действий, Стратегией развития и программой «Узбекистан-2030», разработанных Президентом Шавкат Мирзиёев. Раскрывается влияние музыкальной терапии на психоэмоциональное состояние учащихся, их социальную адаптацию и развитие коммуникативных навыков. В статье также представлены эффективные методы и практические рекомендации по внедрению музыкальной терапии в образовательный процесс.

**Ключевые слова:** инклюзивное образование, музыкальная терапия, учащиеся с особыми потребностями, психоэмоциональное состояние, педагогический подход, образовательные реформы.

## **PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF MUSIC THERAPY IN WORKING WITH STUDENTS WITH SPECIAL EDUCATIONAL NEEDS IN THE CONTEXT OF THE REFORMS OF NEW UZBEKISTAN**

**Abstract:** This article analyzes the pedagogical aspects of music therapy in working with students with special educational needs and disabilities in the context of the reforms of New Uzbekistan. It highlights the issues of developing inclusive education within the framework of educational reforms defined by the Action Strategy, Development Strategy, and the “Uzbekistan–2030” program. The article reveals the impact of music therapy on students’ psycho-emotional state, their social adaptation, and the development of communication skills. It also presents effective methods and practical recommendations for integrating music therapy into the educational process.

**Keywords:** inclusive education, music therapy, students with special needs, psycho-emotional state, pedagogical approach, educational reforms.

Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlardan biri bu - ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, uning sifatini oshirish hamda barcha qatlamlar uchun teng imkoniyatlar yaratish demakdir. Xususan, Harakatlar strategiyasi, Taraqqiyot strategiyasi hamda “O‘zbekiston–2030” dasturida inklyuziv ta’limni rivojlantirish, alohida ehtiyojli o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash va ularning jamiyatga integratsiyasini ta’minlash muhim maqsadlardan biri etib belgilangan.

Alohida ehtiyojli o‘quvchilar bilan ishlash jarayonida ularning nafaqat bilim olish darajasi, balki psixologik holati, emotsional barqarorligi va ijtimoiy moslashuvi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, musiqa terapiyasi samarali pedagogik vosita sifatida e’tirof etilib, u o‘quvchilarning ruhiy holatini yaxshilash, stressni kamaytirish va kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mazkur maqolada alohida ehtiyojli o‘quvchilar bilan ishlashda musiqa terapiyasining pedagogik asoslari, uning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi.

Musiqa terapiyasi — bu musiqa vositasida insonning psixologik holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish usulidir. U nafaqat san’at turi, balki psixologik va pedagogik vosita sifatida ham keng qo‘llaniladi.

Musiqaning asosiy psixoterapevtik xususiyatlariga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, emotsional holatni barqarorlashtiradi, stress va xavotirni kamaytiradi, diqqat va xotirani rivojlantiradi hamda ko‘zlagan maqsadlarimizdan eng asosiysi hisoblanadigan ijtimoiy faollikni oshiradi.

Alohida ehtiyojli o'quvchilar uchun musiqa o'zini ifoda etishning muhim vositasi hisoblanadi. Ayniqsa, nutqida yoki ijtimoiy muloqotida muammosi bo'lgan bolalar uchun musiqa orqali muloqot qilish osonroq kechadi. Musiqa terapiyasi inklyuziv ta'lim muhitida bir nechta vazifalarni o'z ichiga oladi: o'quvchilarning ruhiy zo'riqishini kamaytiradi, o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi, ijtimoiy moslashuvni yaxshilaydi va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga ko'maklashadi. Masalan, sokin kuylar o'quvchilarda tinchlanish hissini uyg'otsa, ritmik mashqlar ularning faolligini oshiradi. Guruhda kuylash yoki musiqa asboblari chalish esa jamoaviy ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Ta'lim jarayonida musiqa terapiyasidan samarali foydalanish uchun quyidagi metodlar qo'llaniladi:

- tinglash metodi – o'quvchilarga turli xarakterdagi musiqalarni eshittirish;
- ijro metodi – qo'shiq kuylash yoki oddiy musiqa asboblari chalish;
- harakat bilan uyg'unlashtirish – musiqa asosida ritmik harakatlar bajarish;
- improvizatsiya – o'quvchilarning erkin ijod qilishiga imkon berish.

Bu metodlar o'quvchilarning individual xususiyatlaridan kelib chiqib qo'llanilishi lozim. O'qituvchi har bir bolaning psixologik holatini inobatga olgan holda darsni tashkil etishi muhim.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O'zbekiston islohotlari sharoitida inklyuziv ta'limni rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda alohida ehtiyojli o'quvchilar bilan ishlashda innovatsion pedagogik yondashuvlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqa terapiyasi esa o'quvchilarning psixologik holatini yaxshilash, ularning ijtimoiylashuvini ta'minlash va ta'lim samaradorligini oshirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu bois, uni ta'lim jarayoniga keng joriy etish zamon talabi hisoblanadi.

#### **FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Inkluziv ta'lim konsepsiyasi, Toshkent, 2022.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti – <https://president.uz>
3. Lex.uz – <https://lex.uz>
4. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi – <https://gov.uz/uz/edu>
5. Google Scholar – <https://scholar.google.com>
6. Ziyonet – <https://ziyonet.uz>